

CHO'LPON SHE'RIYATIDA UCHRAYDIGAN NOZIK
KECHINMALAR

Yoqutxon Sodiqjonova Azizjon qizi
ToshDO 'TAU 1-kurs magistranti
Email:yoqutxonsodiqjonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Cho'lponni anglash va bu orqali qanday omillar talab etilishi to'g'risida yozilgan. Shu bilan birga mustamlaka davrda jadidlar hayoti qay tariqa kechganligi, ularning ijodlariga yozilgan firklar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Millat, ijodkor, munaqqid, tuzum, manipulatsiya.

Annotation: Through this article, it is written about the understanding of Cholpon and that factors are required through it. At the same time, it is shown how the life of jadids was during the colonial period, and the ideas written in their works.

Key words: Nation, creator, critic, system, manipulation.

Kirish. Kashfiyot har qanday davrda ham uchrashi mumkin. Ammo adabiyot bobida qilingan kashfiyot esa kerak bo'lsa butun xalq, millat qalbiga, hayotiga singib boradi. Lekin ma'lumki, bu borada "biroq" degan yeri ham bor. Ya'ni aynan mana shu yaratilgini tan olish muammosi mavjud. Dastlab rad e'tiladi, qora otliqqa chiqariladi. Keyinchalik esa tabib vaqtning malhami, ba'zi dovyurak qahramonlar-u hamda davrning o'zgarishi bilan bog'liq sabablar tufayli ham kashfiyot tan olinadi. Unga bo'lgan qo'rquv va shubhalar asta-sekin chekinadi. Keling o'sha kashfiyot nimaligini emas, aksincha kimligini aytsam. Bu sho'ro davrining jadidlaridan biri bo'lgan Cho'lpon va uning ijodi edi. O'z o'rnida savol tug'iladi nima uchun aynan Cho'lpon va uning ijodi? Bu to'g'risidagi biz anglashimiz kerak bo'lgan manbalar o'zbek adabiyotshunosi va tanqidchisi Ozod Sharafiddinovning "Cho'lponni anglash" maqolasida bayon etilgan. U Cho'lpon ijodiga to'xtalar ekan, "1920-1927 yillar mobaynida Cho'lpon ilhomi jo'shqin buloqday qaynab-toshdi, po'rtonaday qirg'oqlarga sig'may ko'pirib jo'sh urdi"- deya ta'riflaydi¹. Chindan ham o'sha yillardagi jadidchining uch to'plamdan iborat she'rlari, maqola, ocherklari bilan tanishar ekanmiz, ozodlik va hurlikka bo'lgan intilishni sezib, asl davr qanday kechganini ko'z oldimizga keltira olamiz. Shu bilan birga Cho'lpon faoliyatini ayrim chet el adabiyotshunoslari uning she'rlarining mohiyatini payqagan holda baho berdilar. Ya'ni Cho'lponning haroratli, nihoyatda hassos, qalbi nozik va shu tufayli hamki, "qo'rqmas san'atkor" deya atadilar². Albatta, shunday tasniflardan so'ng, Cho'lponni yanada anglagingiz, uning taqdir yo'llari qanday kechganligiga

¹ Ozod Sharafiddinov nomli kitob. 2019-yil Sharq nashiryoti 315-b

² Yuqoridagi kitob, 316-b

qiziqishingiz mumkin. Ozod Sharafiddinov soʻzi bilan aytganda “oʻzini xalqdan ayri holda, zamondoshlarining hayoti, maʼnaviy dunyosidan tashqarida deb tasavvur ham qilolmaydigan” bu inson qariyb yetmish yil muddat qoralanib kelindi. Eng achinarlisi, maqola boʻladimi yoxud maʼruzalarda “burjua shoiri” , “bosmachilar kuychisi” , “millatchi” , “yoshlar ongini zaharlovchi yot unsur” , “xalq dushmani” yana shu singari kurakda turmaydigan nohaq soʻzlar bilan aybladilar. Qizigʻi esa hech kim bu soʻzlar rost yoki yolgʻonligi bilan oʻylashib oʻtirmaydi, oxiriga yetmaydi. Nahotki, Choʻlpon singari jadidlarimizni oqlaydigan biror kimsa topilmasa? Ha, agar millatning koʻzlari koʻr, quloqlari kar boʻlsa haligacha birorta qahramon topilmagan boʻlardi. Biroq tuzumning oʻzi shundaylikni talab etsa, koʻz oʻngimizdagi chin boyligimizni yoʻq qilinishiga, kerak boʻlsa bu yoʻlda oʻzimiz tirik tomoshabinga aylanib, bu rolni qoyillatib oʻynaganimiz millatimizdan bir emas, yuzlab jadid ziyolilarimizning hayotiga nihoya yasaganidan darak emasmi?

Asosiy qism. Ozod Sharafiddinovning ushbu maqolasini mutolaa qilishni davom etar ekanman, unda shoir asarlari tanqinchilik tomonidan ijobiy kutib olingan, hatto ularga iliq munosabat ham berilgan ekan. U toʻgʻrisida matbuotda samimiy fikr va qarashlar bildirilgan. Va aynan mana shunday Choʻlponning tanqidiy ijodiga birinchilardan boʻlib oʻz qarashlarini bildirgan olim Zarif Bashariy edi. Yaʼniki, “Turkiston” gazetasining 1923-yil 4-may sonidagi Choʻlponning ilk toʻplami boʻlmish “Uygʻonish” kitobiga taqrizini eʼlon qiladi. Taqrizning asl mohiyati, bir soʻz bilan aytganda u chin va hassos shoirdir. U shoir deb atalgan nomga loyiq boʻlgani uchun ham chin adabiyot koʻzi bilan tekshirib, tanqid qilishga arziydi singari jumlani tashkil qiladi. Olim soʻzining quyida Choʻlponing sheʼrlari koʻngilga yaqin boʻlgani, qolaversa, dilga birzumda taʼsir etuvchi soʻzlardan foydalangani sababli ham shoirga “chin yurak va his shoiri” taʼrifini beradi³. Choʻlponning yana bir ijodiy ishi sanalmish “Buloqlar” toʻplamiga munaqqid Vadud Mahmud taqrizida shunday deydiki: “Bugungi oʻzbek adabiyotiga yangi bir toʻn kiygizildi”. Hamda u bu toʻnni kiygizgan inson Choʻlpon ekanligiga ishora qiladi. Yuqorida munaqqidning Choʻlpon orqali oʻzbek adabiyotiga berilgan goʻzal maqomdan yurak shodlanadi. Biroq shoirning nega “Buloqlar” toʻplami? Bu savolning uygʻonishi tabiiy. Savolga javob tariqasida shu toʻplamda keltirilgan “Buzilgan oʻlkaga” sheʼrini oyna qilib tutgan boʻlardim. Sababi, bu sheʼr toʻplamdagi eng kuchli ijod mahsulidan biri boʻlib, xalqning shoʻro tuzumidan qiynaliyotganligi “oʻlka” va koʻlanka obrazlari yordamida koʻrsatilgan. Hatto shoirning ayni shu sheʼri juda ahamiyatli boʻlganidan professor E. Ollvort oʻzi ishida oʻzbek va inglizcha tarjima asosida keltiradi. Bundan tashqari professor sheʼrga doir ilmiy mushohadalar chop ettiradi. Ammo olim bu bilan qanoatlanmay Choʻlponning “Buzilgan oʻlkaga” sini Gʻayratining “Tuzalgan oʻlkaga” sheʼri bilan qiyoslaydi⁴.

³ Yuqoridagi kitob 317-b

⁴ www.ziyouz.com

Cho'lpon:

**Ey, tog'lari ko'klarga salom bergan hur o'lka,
Nima uchun boshingda quyuc bulut ko'lanka?**

Xo'sh, shoir bu bilan nima demoqchi? Ya'ni u bu satrlar orqali Turkiston tabiati bahavo, so'lim bo'lsada, tabiati ko'zni quvontirsada, shu go'zallikni, shu tinchlikni "quyuq bulut ko'lankasi" taqib qilishdan aniq aytganda mustamlaka davridagi muhit oddiy xalqqa ozor berishdan o'zini tiyolmaydi. So'zimni davom ettirar ekanman, avval olim-u adiblar tomonidan ko'klarga ko'tarilgan ijodkor bir deganda qara otliqqa ham chiqib qolishi hech gap emas. Buni Zarif Bashariy misolida ko'rish mumkin. Yuqorida bayon qilinganidek Cho'lpon "chin yurak va his shoiri" edi. Biroq biroz muddat o'tgach, garchan u "el" va "xalq" so'zlarini qancha ko'p yozmasin, so'zlamasin, "u xalq shoiri emas" - nomli tamg'a bosildi⁵. O'zi bunday olib qaralganda, o'zbek adabiyoti va jurnalistikasida manipulyatsiya degan termin mavjud. Ya'ni ta'sir o'tkazish. Bir kishi shoir haqida bir salbiy so'zdan foydalandimi, deyarli barcha uning ketidan bu salbiy bo'yoqdorlikni davom ettiradi. Xoh bu berilgan ta'rif to'g'ri bo'lsin, xoh noto'g'ri. Shu sababli ham Bashariy izdoshlari birin-ketin topilaverdi. Orada bir yil o'tgach bu xususida Abdurahmon Sa'diy shunday deb yozadi: "Cho'lpon omma-xalq shoiri emas, o'qimishlilar, ziyolilar shoiridir. Uni ommaviy xalq tez anglaydi. Lekin shuning barobarida, u xalq qayg'usi bilan yozg'uvchi "xalqchi" bir shoiridir. Cho'lponda asl ko'zga qattig' berilib turg'on tub xususiyat ham shundadir"⁶. Dastlab, 1923-1924 - yillarda Cho'lpon "xalq shoiri emas, ziyolilar shoiri" degan nom siyosiy jihatdan uncha muhim hisoblanmasada, ammo keyinchalik u xalq shoiri bo'lib emas, ziyoliy jadidchilar shoiri deb gap" – tarqalishi siyosiy tuzum tomonidan Cho'lponni o'lim jariga yo'llagandi. O'sha kezlarda Cho'lponga taalluqli g'aroyib hodisalar yuz berdi. Bunga misol tariqasida Ayn va Oybek o'rtasida kechgan bahsni tilga olsa bo'ladi. Ya'ni 1927-yil 14-fevral kuni "Qizil O'zbekiston" gazetasida Olim Sharafiddinov (Ayn) tomonidan "O'zbek shoirlari, Cho'lpon" degan maqola bosildi. Shu maqola ostida esa tahririyat hodimlari Cho'lpon haqida bahs boshlaganliklarini va barcha qiziqqon ijodkorlarni shu bahsda ishtirok etishalariga chorlov edi. Shundan so'ng orada ma'lum muddat o'tib, Cho'lpon bahsiga ilk qadamlar-la Oybek "Cho'lpon, shoirni qanday tekshirish kerak?!" degan maqolasi bilan kirib keldi. Undan so'ng esa Usmonxon o'zining "Munaqqidning munaqqidi" nomli maqolasi bilan Oybekka qarshi tanqidiy fikr bilan chiqdi. Oybek esa bahsda bosh kelmay, "Munaqqidning munaqqidi" maqolasining egasiga" degan maqola orqali o'z qarashlarini himoya qildi⁷. Shu tariqa shiddatli bahsga O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Birinchi kotibi Akmal Ikromov O'zbekiston madaniyat xodimlarining II qurultoyida qilgan ma'ruzasi

⁵ Yuqoridagi kitob, 319-b

⁶ Yuqoridagi kitob, 323-b

⁷ Yuqoridagi manba, 326-b

orqali nuqta qo‘yadi.

Yuqoridagi bahsdan so‘ng Olim Sharafiddinov to‘g‘risida so‘z ketar ekan, u ham avval Cho‘lpon haqida ko‘p va xo‘p fikrlar bildiradi. Ya‘ni Cho‘lpon tilini u o‘zbek adabiy tiliga chiqaradi. O‘rnak va taqlid jihatida ham Cho‘lpon ijodidagi tilni ko‘klarga ko‘taradi. Biroq ko‘p muddat bo‘lmay, Ayn sinfilik ko‘zaynagini kiygandan keyin. U ham o‘z monipulatsiyasini boshlaydi. Ya‘ni marksizm g‘oyasini aniqroq aytganda sinfilik prinsipini mahkam tutadi. Ayn har bir shoir yoki adibni qaysi sinfga mansub. Xo‘sh, uning asarlari qaysi sinf manfaatlari yo‘lida xizmat qiladi? Kabi savol bilan ijodkorlarni tanqid qila boshladi. Albatta, ular orasida Cho‘lpon soyada qolmagan edi. Shu tufayli ham u “Cho‘lpon yo‘qsil xalqning shoiri emas, u millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir” - degan qarashlarni bildiradi. Xuddi Zarif Bashariy va Abdurahmon Sa‘diy singari.

Lekin Ozod Sharafiddinovning qarashlari bilan yondashadigan bo‘lsak, unda haqiqatga yaqin so‘zlarni ko‘ramiz. Yozuvchi aytadiki: “Cho‘lponni ziyolilar shoiri deb ham olaylik. Ammo kim isbot qila oladi ziyolilar shoiri xalq shoiri bo‘lolmaydi deb?”⁸ - tabiiyki hech kim. Shunday ekan, uning quyidagi “Sozim” nomli she‘riga e‘tibor qaratamiz.

Nafrat o‘lkasidan hijrat qilganman,
Ulfat diyoriga maskan qurganman.
Yuzumni o‘t emas, gulga burganman;
Samoviy zavqlarga to‘lib turganman
Bulbullar sevgini maqtagan damda!

Cho‘lpon o‘zining ushbu she‘rida kechgan og‘ir paytlarini tasvirlaydi. Nafrat, qarama-qarshi his-tuyg‘ularni ifodalovchi o‘lka, ya‘ni muayyan ijtimoiy yoki shaxsiy muammolar, ziddiyatlardan qochib, yangi umid va imkoniyatlarga qadam qo‘yishni anglatadi. U o‘zini shunday joylardan uzoqlashib, tinch va baxtli yashashga intilayotganligini ko‘rsatadi.

“Yuzumni o‘t emas, gulga burganman”. Bu baytda shoir o‘zining kechinmalari va hissiyotlarini tasvirlaydi. Yuzining o‘tga, ya‘ni og‘irlik va muammolarga emas, balki gulga, go‘zallik va ozodlikka burgani, o‘zining ichki dunyosidagi tinchlik va farovonlikni anglatadi. O‘zi uchun go‘zallik, sevgi, tinchlikni tanlaydi.

“Samoviy zavqlarga to‘lib turganman”. Bu bayt shoirning ruhiy holatini aks ettiradi. U samoviy zavqlarga, anig‘roq aytganda, yuqori, ulug‘vor hissiyotlarga, ma‘naviy va estetik qoniqishlarga to‘lganini bildiradi. Uning xayoliy maskanida, tabiiy go‘zallik va ma‘naviyatning yuksak darajalari bor, bu esa shoirning o‘zini erkin his qilishini ta‘minlaydi.

“Bulbullar sevgini maqtagan damda!”. Bu baytning oxiri Cho‘lponning yuqori nuqtaga chiqqan his-tuyg‘ularni namayon qiladi. Bulbulning sevgini maqtangani – sevgi, go‘zallik va baxt haqida gapirganda, u tabiatdan olingan ilhomni ifodalaydi.

⁸ Ozod Sharafiddinov nomli kitob. 2019-yil Sharq nashiryoti 329-b

Shoir o‘zining xayoliy yurtida, tinchlik va sevgi avjida, go‘zal va hayotiy o‘rnini e’tirof etadi.

Tilingan tillarga qon yugurgusi,
Bo‘shalgan inlarga jonlar kirgusi.
Tikanli bog‘chalar chechak ko‘rgusi,
Haq yo‘li, albatta, bir o‘tilgusi
Jandalar jonimga tekkan kunlarda!

“Tilingan tillarga qon yugurgusi”. Bu baytda “tilingan tillar” iborasi shoirni va uning hissiyotlarini nazarda tutadi. “Qon yugurgusi” esa, his-tuyg‘ularning kuchli va hayotiy ekanligini anglatadi. Ya’ni shoir shu qadar erkin bo‘lmoqlikni istaydiki, hatto bu yo‘lda tillar tilingan. Qo‘shimcha qiladigan bo‘lsak, shoir o‘zining boshdan o‘tkazgan shaxsiy kechinmalari, hayotiy tajribalarini tasvirlaydi.

“Bo‘shalgan inlarga jonlar kirgusi”. Ushbu satrda “bo‘shalgan inlar” hayotning noaniq va to‘siqsiz qiyofasini bildiradi, hamda “jonlar kirgusi” so‘zlari orqali shoir umid, yangi hayot va ehtirosni ifodalaydi.

“Tikanli bog‘chalar chechak ko‘rgusi”. Bu baytda esa, tikanli bog‘chalar, ya’ni to‘siqlar va qiyinchiliklar haqida gapirilmoqda. Ularning orasida chechaklar unib chiqishi, go‘zallik va umidni qadrlashni anglatadi. Bu yerda shoir singari osuda hayotni qidirayotgan inson tasvirlanadi. Shuningdek, hayotdagi go‘zalliklarni, yaxshiliklarni qo‘lga kiritishda qiyinchiliklar to‘siqlar mavjudligiga ishora qiladi.

“Haq yo‘li, albatta, bir o‘tilgusi”. Bu baytda “haq yo‘li” shoirning maqsad va idealari haqidagi fikrini anglatadi. “Bir o‘tilgusi” ifodasi orqali, hayotda qandaydir bir yo‘lni tanlash va o‘z maqsadlariga yetish yo‘li zarurati ta’kidlanadi.

“Jandalar jonimga tekkan kunlarda”. So‘zgi baytda esa, “jandalar” so‘zining ma’nosi ko‘plab ta’sirlar va taqdirning qiyin kunlarini anglatadi. “Jonimga tekkan” esa, shoir o‘zining yutqazishlari va iztiroblarini hayotida keskin jabhalarga olib kelganligini ko‘rsatadi. Ushbu bayt aytilayotgan barcha hissiyotlarni qat’iy va kuchli ko‘rsadi, shoir uchun kunlar qiyinchilikka to‘la bo‘lganida ham umidni yo‘qotmaslik zarurati ekanligi yo‘naltiradi.⁹

She’rdan ma’lumki, biz Cho‘lpon ijodida erkinlikka, yurt ozodligiga erishishini istagani uchun ham ba’zilar uni ziyolilar shoiri deb atadi. Lekin erk, hurlik tuyg‘usi faqatgina ziyolilarda emas, oddiy, yo‘qsul xalqda ham bor. Shunday ekan, shoir she’rlarida faqatgina ziyolilarnikinida emas, balki, butun yurtning dardi-alamini, orzu-istaklarini o‘zining cho‘lpon tili bilan ifodalay oldi. Aynan shu omil orqali ham butun xalq mehrini qozondi. Hamda bu yo‘lda shirin joni xavf ostida qolsa-da, millatiga haq so‘zni ayta olishdan chekinmadi.

⁹ Buloqlar quchog‘ida. 2017-yil, Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

¹⁰ Muhaz.org.uz

Biroq Cho'lpon xalq muhabbatini qozongan bo'lishiga qaramay, ba'zi bir munaqqidlar tomonidan "cho'lponizm,, yoshlar uchun g'oyatda zararli" degan fikrni o'rtaga tashlagan holda, "Cho'lponda sabotlik mustaqil dunyoga qarash yo'q", "U u shoxdan bu shoxga qo'nib yuradi", "Cho'lpon o'zining shoirlik vazifasini to'g'ri tushunmaydi", "Cho'lpon taraqqiyparvar rassom emas, tanazzulparvar hayolparastdir" kabi haqoratimiz, yolg'on so'zlar bilan ayblanadi.¹⁰ Aslida bu so'zlarni aytmoqlik oson, har qanday kishining qo'lidan keladigan ish. Lekin bularni barchasini isbotlab berish, uning tagiga yetish bu nihoyatda murakkab. To'g'ri qiyin ham deyildi. Ammo yolg'on bo'xtonlarni xuddi haqiqatdek qilib ko'rsatadigan, Cho'lpon she'riyatida boshqachangi bir ma'no bo'lsa turib, u ijod maxsulini o'zining munosib kelmagan fikrlariga ishontiradigan, yoxud adabiy faktlarni o'zining avvaldan belgilab qo'ygan maqsadiga bo'ysintirishga urinadigan ayrim munaqqidlarni ham uchratish mumkin ekan. Xuddi Olim Sharafiddinov singari. Masalan, Cho'lpon o'zining juda ko'p she'rlarida o'zining "yer shoiri" ekanini, doimiy izlagan va ko'ngliga yaqin narsasi "yer yulduzi - yer qizi" ekanligini ta'kidlaydi. Ammo munaqqid buni aksini ko'rsatadi. "Ko'klarda "jinnilarcha hovliqib" yurushdan ba'zan charchaydi, faqat yerga tushgisi kelmaydi, undan lazzat olmaydi. Mabodo, qaytib yerga tushgudek bo'lsa, o'zini haqoratlar, safolatlar, tubanliklar ichida his qiladi, ko'nglining kishanlar bilan bo'g'langanligini ko'radi"¹¹. O'ylab qaraydigan bo'lsak, yuqorida aytilganidek, adabiy faktni inkor etgan yoki e'tibor qaratmagan holda, asl haqiqatni o'zining xohishiga, maqsadiga moslashtirdi. Garchi birorta ma'no uyg'un kelmasada. Lekin kim bu so'zlarga qarshi qalam ko'tara oldi?

1917-yillarda bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelishlari bilanoq, mafkura jilovini qo'lga oldilar. Dastlab, ular so'z erkinligini tan olgan bo'lsalar-da, ammo amalda xatti-harakatlarni cheklash, man etish, tazyiq ostiga olish yo'lidan bordilar¹². Axir qaysi hokimiyat tepasiga kelgan kuch avval xalqqa so'z erkinligini berib, keyinchalik o'sha erkinlik o'zining oyog'iga bolta urishini istaydi? Shu tufayli ham davr siyosati millionlab ziyolilarning qamoqqa olinishiga, bu ham kamdek, ularning mol-mulkiga, oila-a'zolari-yu yaqinlariga ziyon yetilishiga, kezi kelganda jadidlarning ko'p qismi otilishiga sababchi bo'ldi. Afsuski, shu kabi ziyolilar orasida Cho'lponning borligi, millat ko'zini ochib, o'zligini anglatuvchi yana bir jadidchining qurbon bo'lgani o'sha kezlarda o'zlarini partiya manfaati, xalq manfaati yo'lida xizmat qilyapmiz deb o'ylagan madaniyat xodimlari shoir o'limidan mamnunlikda, uni qoralab chapak chalganlarida u bilan bir qatorda asl ijod farzandini, uning erkinligiga ham go'r qaziganliklarini-da anglashganmikan? Ammo bir tomondan chin adabiyot va ijodning o'limi 30-yillarga borib taqalgandi. Bu yillarda jadidchilarimiz tomonidan yozilgan

¹¹ Ozod Sharafiddinov nomli kitob. 2019-yil Sharq nashiryoti 329-b

¹² Muhaz.org.uz

asarlar emas, aksincha oddiy ilg‘or ishchilardan sun‘iy yozuvchilar yozgan asarlar o‘qila boshlandi. Unda Abdulla Qodiriy bitgan “O‘tgan kunlar” yoki “Mehrobdan chayon” kabi ijod namunalari o‘rniga, yasama yozuvchilarning asarlari ko‘klarga ko‘tarildi. Sababi Ozod Sharafiddinov yozganlaridek: “Hukmron mafkuraga hamisha “chest” berib turadigan qul adabiyot, hayotdagi hamma narsani ma‘qullab turadigan maddoh adabiyot kerak edi. Bu mafkura, ayniqsa, har narsani sinchiklab tagiga yetishga urinadiga, o‘rinsiz va ilmoqli savollar berib, jonga tegadigan, mustaqil fikrli, iste‘dodli yozuvchilardan bezor edi”¹³. Hukumat shu kabi adabiyotni va u orqali butun millat ongini boshqarishni davom etdi. Sun‘iy adabiyotdan hosil bo‘lgan hosila hukumat uchun ziyoli qatlamni emas, balki tayyor manqurtlarni shakllantirib berishga dastur-u zamindir. Shu ekan xalq beliga haqqonilik kamarini bog‘lagan adabiyotdan to‘yinmasa, jadidlar qoldirgan asarlardan oziqa olmasa, u holda qanday qilib o‘zligini anglaydi?

Xulosa. So‘zinning yakunida shu aytishim joizki, Cho‘lpon kabi jadidlarimiz dastlab qoralanib, ularning asarlari o‘qilishiga ta‘qiq qo‘yilgan bo‘lsa-da, lekin chin ijodga oshnolar uning kitoblarini yashirin holda bo‘lsa ham mutolaa qildilar. Kimda Cho‘lpon kitobi bor ekan, u qo‘lma-qo‘l qilinib, uning asarlaridagi mazmunni va shu ma‘no orqali ijodkor nima demoqchiligini anglay boshladilar. Shukrki, ma‘lum bir davr o‘tgach, jadidlarimiz oqlandilar. Ammo shunda ham “Cho‘lpon murakkab shoir”, deya nom ostida uning asarlari to‘laqonli o‘rganib chiqilishida qandaydir to‘siqlar qo‘yilgandi. Bu to‘siqning hamon borligi davr muhitiga yoki oddiy aytganda qo‘rquvga yo‘yish mumkin. Lekin mustaqillikka erishgach, mana endi Cho‘lponni anglash yo‘lida dadil qadamlar qo‘yildi desa bo‘ladi. Uning ilk sababchisi deya O‘zbekiston Respublikamizning Birinchi prezidenti I.A. Karimovning qilgan nutqidan bilishimiz mumkin. U nutqida Cho‘lpon ijodiga alohida to‘xtalib, unda juda katta baho beradi. Shoir she‘rlaridan parchalar keltirib, uning ijodi bugungi kun bilan hamnafas ekanligini ta‘kidlaydi¹⁴. Cho‘lponni anglashdagi keyingi pag‘onalarni Ozod Sharafiddinov, Naim Karimovdek yozuvchilarimiz davom ettirdilar¹⁵. Bundan nimani ko‘rishimiz mumkin? Albatta, haqiqatni. Haqiqat egiladi, bukiladi ammo sinmaydi. Lekin Cho‘lponni anglash yo‘lida asl mohiyat bu uning nomi berilgan ko‘chalar yoki atab qurilgan haykallar emas, muhimi shoirni qalbdan anglab his eta bilishdir. Shundagina u Abdurahmon Sa‘diy tabiri bilan aytganda “yonadur ham yondiradur”. Shu yondirish orqali qalbdan qo‘rquv bilmas chechaklar unadi hamda bu tufayli Cho‘lpon ijodi sari mustahkam ko‘priklar bunyod etilaveradi.

¹³ Ozod Sharafiddinov nomli kitob. 2019-yil Sharq nashiryoti 329-b

¹⁴ Ozod Sharafiddinov nomli kitob. 2019-yil Sharq nashiryoti 330-b

¹⁵ Ziyouz.com kutubxonasi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozod Sharafiddinov nomli kitob. 2019-yil, Sharq nashiryoti
2. Buloqlar quchog'ida. 2017-yil, Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
3. Muhaz.org.uz
4. <https://kh-davron.uz/>
5. www.ziyouz.com
6. www.arxiv.uz.